

**UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA O‘QUVCHILARNI KICHIK
TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH USULLARI**

Nilufar Yuldasheva Abdullayevna

pedagogika fanlari doktori, professor.

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Nurmatova Nargiza Saidovna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahar

24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotchilik va o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatining mazmun-mohiyati ochib berilib, o‘quvchilarda mustaqil ilmiy izlanish, muammoni aniqlash, faraz ilgari surish, tadqiqotni rejalashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni baholash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning nazariy, amaliy va psixologik jihatlarini asoslangan. Shuningdek, adabiyot darslarida fanlararo integratsiya, zamonaviy pedagogik metodlar, raqamli texnologiyalar, raqamli matnlar, muammoli va loyihaviy ta’limdan foydalanishning imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. O‘quvchilarning tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishda dars jarayoni bilan bir qatorda mustaqil va sinfdan tashqari faoliyatni tashkil etish muhimligi asoslangan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tizimli tashkil etish ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi, tanqidiy tafakkuri va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik faoliyati, o‘quv-tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalari, tadqiqotchilik kompetensiyasi, umumiy o‘rta ta’lim, kichik tadqiqot, mustaqil ta’lim, ilmiy izlanish, adabiyot darslari, faoliyatga asoslangan ta’lim, loyiha metodi, muammoli ta’lim, raqamli texnologiyalar, raqamli matn, fanlararo integratsiya, ijodiy faoliyat, tadqiqotchilik salohiyati

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni mustaqil fikrlash, izlanish olib borish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarishga o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash ularning intellektual, ijodiy va amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotchilik faoliyati o‘quvchining mavjud bilimlarni shunchaki o‘zlashtirishi emas, balki muammoni aniqlash, savol qo‘yish, faraz ilgari surish, ma’lumotlarni izlash, ularni tahlil qilish, tadqiqot usullarini tanlash, natijalarni umumlashtirish va asoslangan xulosa chiqarish jarayonlarini mustaqil amalga oshirishini nazarda tutadi. Shu sababli o‘quvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim mazmunini zamonaviylashtirish va uning amaliy yo‘nalishini kuchaytirish bilan bevosita bog‘liq [1].

Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni nazariy, amaliy va psixologik tayyorgarlikning o‘zaro uyg‘unligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Nazariy tayyorgarlik o‘quvchilarning ilmiy tushunchalar va tadqiqot metodlari haqidagi bilimlarini shakllantirsa, amaliy tayyorgarlik ushbu bilimlarni mustaqil tadqiqot jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Psixologik tayyorgarlik esa o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqish, mustaqillik, tashabbuskorlik va tadqiqot faoliyatiga ijobiy munosabatni rivojlantirishga xizmat qiladi [2].

Ayniqsa, adabiyot darslari o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Badiiy asarlarni tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash, obrazlarni qiyoslash, tarixiy va adabiy manbalarni o‘rganish, dalillar asosida xulosa chiqarish o‘quvchilarda ilmiy izlanishning dastlabki ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday faoliyat fanlararo integratsiyani ta’minlash bilan birga, o‘quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini ham rivojlantiradi [3].

Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Elektron kutubxonalar, raqamli ma’lumotlar bazalari, elektron ta’lim resurslari va interaktiv platformalar o‘quvchilarga zarur axborotni mustaqil izlash, saralash, tahlil qilish va taqdim etish imkonini beradi. Bunda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarni ishonchli manbalarni tanlash, axborotni tanqidiy baholash va undan ilmiy maqsadlarda foydalanishga yo‘naltirishdan iborat.

Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashni tizimli tashkil etish, ularning mustaqil izlanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda pedagogik va raqamli vositalardan samarali foydalanish bugungi ta’limning dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik asoslarini aniqlash va samarali metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat. Ta’kidlash lozimki, ta’limda tadqiqotchilik malakalari o‘z-o‘zidan shakllanmaydi; tadqiqotchilik mahoratini rivojlantirish uchun ham, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kabi oliy ta’lim muassasasida maqsadga muvofiq, tizimli, samarali va zamonaviy o‘quv jarayoni tashkil etilishi zarur. Tezkor rivojlanayotgan davr talablariga muvofiq esa, yoshlarning o‘quv jarayoni shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, ularning kasbiy faoliyatga

tayyorgarligida mustaqil ilmiy-ijodiy ko‘nikmalar, tadqiqot malakalari, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirish ko‘nikmalarini egallashi hamda amalda qo‘llashi ta‘minlansin.

Ta‘lim jarayonidagi tadqiqotiy ishlar, masalan, mini-tadqiqotlar o‘tkazish, ta‘lim loyihalarini amalga oshirish, ilmiy tadbirlarda faol ishtirok etish orqali o‘quv jarayonining individuallashtirilishini ta‘minlashga xizmat qiladi;

Maktabda kichik tadqiqot dars o‘tishda o‘quv jarayoni bilan parallel tarzda olib boriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyati bo‘lib, u ko‘pincha — amaliy darslarda, seminar va konferensiya darslarida ham o‘quvchilarni kreativ ijodiy loyihalarda qatnashishlariga, mavzuli olimpiadalarda, tanlovlarda, xalqaro ilmiy dasturlarda ishtirok etish kabi faoliyatlarini rivojlanishiga turtki bo‘ladi [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda umumiy o‘rta ta‘limda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonini o‘rganishda tizimli, faoliyatga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar metodologik asos sifatida belgilandi. Tadqiqot metodologiyasi o‘quvchilarda mustaqil izlanish, ilmiy axborot bilan ishlash, muammoni aniqlash va tadqiqot natijalarini asoslash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirildi.

Tadqiqotda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning nazariy, amaliy va psixologik jihatlari o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi. Nazariy tayyorgarlikda tadqiqot faoliyatining mazmuni, ilmiy tushunchalar va tadqiqot usullari o‘rganildi. Amaliy tayyorgarlikda o‘quvchilarning mustaqil tadqiqot topshiriqlarini bajarishi, ma‘lumotlarni izlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishi tashkil etildi. Psixologik tayyorgarlik esa o‘quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqish, mustaqillik, tashabbuskorlik va ijodiy faollikni rivojlantirishga qaratildi [5].

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi pedagogik omillar aniqlandi.


Adabiyot darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muammoli ta‘lim, loyiha metodi, mustaqil izlanish, qiyosiy tahlil va ijodiy topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Badiiy asarlarni tahlil qilish, manbalar bilan ishlash, obraz va voqealarni taqqoslash hamda dalillar asosida xulosa chiqarish tadqiqotchilik faoliyatining amaliy shakllari sifatida belgilandi.

Shuningdek, tadqiqotda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning axborotni izlash, saralash, qayta ishlash va taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaraldi. Tadqiqot natijalarini baholashda o‘quvchilarning muammoni

aniqlash, ma'lumot to'plash, tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalariga e'tibor qaratildi.

NATIJALAR

Tadqiqotchilik va o'quv-tadqiqotchilik ishlarini tashkil etish muammolari bilan I.Lerner, P.Pidkasistiy va boshqalar shug'ullangan. “Tahlillar tadqiqotchilik va o'quv-tadqiqotchilik faoliyati tushunchalarini va ularning integratsion aloqalarini aniqlashtirish lozimligini ko'rsatdi” (1-rasm).



1-rasm. Tadqiqotchilik va o'quv-tadqiqotchilik ta'rifi

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, tadqiqotchilik faoliyatini sinfdan, darsdan tashqari olib boriladigan ilmiy izlanish, o'quv-tadqiqotchilik faoliyati esa, bevosita o'quv xonasida tashkillashtiriladigan hamda ilmiy faoliyatga tayyorlovchi ta'limiy jarayon deb tavsiflashimiz mumkin. Umumiy ta'limda tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda manbaaning eksperimental-bibliografik mazmunini tahlil qilish va tadqiqot o'tkazish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi shart-sharoitlarni yaratishi bilan tavsiflanadi [6].

O'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish va ularda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash tizimining majburiy komponenti sifatida Milliy ta'lim dasturida berilgan muhim muammolaridan biri deb hisoblaymiz. Uzlaksiz ta'lim yoki qiyoslaydigan bo'lsak, oliy ta'limda ham bu muammoni tadqiqotchi O.Ibryanova “Bakalavriyat talabalarini butun o'quv davrida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlashni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar zarur deb hisoblaydi:

-  talabalarning tadqiqotchilik faoliyati jarayonida kasbiy-shaxsiy o'z-o'zini namoyon qilishga yo'naltirilganligi;
-  tadqiqotchilik faoliyatining individual uslubini rivojlantirish;
-  -talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining motivatsion-qadriyatli, kreativ, texnologik va refleksiv kabi komponentlarining birligini ta'minlash.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilar tomonidan olib boriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, ushbu jarayon o‘quvchilarda mustaqil ilmiy izlanish uchun kerakli ko‘nikma va malakalarni, harakat algoritmini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu usullar mantiqiy hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot ishlari o‘quvchilarni o‘z ijodiy potentsialini to‘liq amalga oshirish imkoniyatini ta’minlaydi. Demak, bugungi kunda o‘quvchilar uchun akademik va kasbiy fanlar doirasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tizimli tarzda olib borish imkonini beruvchi shart-sharoit yaratish kabi vazifalarga ta’lim muassasalarining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanishi lozim [7].



2-rasm. Tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish komponentlari modeli


Yuqorida bayon etilgan tahlillar va fikrlar asosida zamonaviy pedagogika yo‘nalishi talabalarini, ayniqsa, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonining o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentlarini maktab hamkorligi asosida ko‘rish mumkin. Bu modelni 2-rasmda aks ettirdik. I.Goncharenko, N.Kraxmalyovalar ta’kidlashicha: “O‘quvchilarning ilmiy faoliyatga tayyorgarlik kompetensiyasi tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlari tadqiqotchilik kompetensiyasi komponentlari bilan to‘liq mos keladi”.

Ushbu olimlarning tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish komponentlariga fan sohasi yoki mutaxassislik xususiyatlarini inobatga olib, quyidagi qo‘shimcha talablarni qo‘ydik. Birinchidan, mazkur tadqiqotchilik faoliyati komponentlarining algoritmi bo‘lajak pedagoglarni ilmiy-tadqiqot ishlariga samarali tayyorlash uchun ular da bilish faoliyatini ta’lim jarayoniga intensiv integratsiya qilishi bilan o‘lchanadi. Ikkinchidan, bunday talablar zamonaviy o‘qitish usullari va shakllarini qo‘llash, turli xil axborot texnologiya vositalaridan foydalanish, raqamli matnlar bilan ishlash,

muammoli o‘qitish va loyihaviy yondashuvlardan akademik bilim va kasbiy fanlar tizimida ijtimoiy motivatsiyani kuchaytiruvchi o‘quv-grafikli topshiriqlarni pedagogik dizaynga muvofiq xronologik tasniflashni tatbiq etish kabi vazifalarni amalga oshiradi. Uchinchidan o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonini personallashtirishga qaratilgan texnologiyalar, yangich ta’lim shakllarini ishlab chiqishda juda katta yordam beradi.

MUHOKAMA

Tadqiqotlar natijalarini tizimli ravishda ifodalash maqsadida, o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoni quyidagi tizimli ko‘rinishda taqdim etishni ma’qul ko‘rdik. Umumiy o‘rta ta’limda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorgarlikning uch asosiy jihatini ajratib, unga quyidagicha ta’rif berdik. (3-rasm).



3-rasm. Maktabda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash tizimi va usullari

O‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayoniga adabiyot darslarining quyidagi xususiyatlari bevosita o‘qitishga ta’sir ko‘rsatadi:

- ✓ zamonaviy-pedagogika, psixologo-pedagogikaning boshqa fanlar va bilimlar integratsiyasi;
- ✓ o‘quvchilarning kasblarga bo‘lgan qiziqishlari bo‘yicha umumiy kompleks tayyorgarligi;
- ✓ darslar integratsiyasi va fanlarning o‘zaro aloqasi va boshqalar.

Bunday qaraganda adabiyot darslarida asar mavzusi va bosh g‘oya bilan bog‘lab tayyorgarlikni metodologik ta’minlashda ilmiy izlanishga yo‘naltirilgan faoliyat muhim shartlardan sanaladi. Shu maqsadda maktab dasturlarida kasbiy tayyorgarlik tizimining tayanch nuqtasi psixologik va tashkiliy-pedagogik tayyorgarlik sifatida tanlab olindi. Mana shunday integratsiyalovchi quyidagi ikki jihat ilmiy tadqiqotchilik faoliyatining stimulyativ omili hisoblanadi:

✓ sohaga va kasbga yo‘naltirish umumiy ta’limning o‘zaro aloqadorligini belgilaydi. Kasbiy ta’lim ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib, ta’limning ushbu turi butun jamiyat rivojlanishini kadrlar, ilmiy-metodologik, texnologik va axborot bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi;

✓ ta’lim tizimining fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ijtimoiy va madaniy sohalar bilan integrasiyasi. Bu maktab va oliy talim muassasalaridagi o‘quv jarayoni tobora o‘quv-ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lib borishida namoyon bo‘ladi.

Pedagogika yo‘nalishidagi o‘zbek tili va adabiyoti soha talabalari uchun bo‘lajak kasbiy faoliyat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bo‘lajak fan o‘qituvchisi uchun ikki asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Birinchi yo‘nalishda, asosiy mehnat faoliyati insonlar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi yo‘nalishda doimiy ravishda kasbiy sohada maxsus bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish talab etiladi [8].

Demak, o‘quvchilarning tadqiqotchilik imkoniyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-  yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun tadqiqotlarni o‘tkazish zarurligini aniqlash;
-  dars jarayonida tadqiqotchilik vazifalarini maqsadli qo‘yish;
-  muammo yuzasidan farazlarni ishlab chiqish;
-  kichik tadqiqotni o‘tkazishni rejalashtirish;
-  amaldagi tadqiqotchilik harakatlarini bajarish;
-  dastlabki ma’lumotlarni tahlil qilish va tadqiqot natijalarini baholash ko‘nikmalarini bajarish va boshqalar.

Zamonaviy axborot jamiyatida o‘quvchilarning tadqiqotchilik tayyorgarligi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. U iqtisodiyotning istiqbolli rivojini ta’minlaydi, madaniyatni boyitadi, ijtimoiy taraqqiyotni aniqlovchi jamiyat intellektual zahirasi mustahkamligini ta’minlaydi.

O‘quvchilarning tadqiqotchilik imkoniyatlari bu natijalari oldindan noma’lum bo‘lgan ijodiy, tadqiqotiy masalalar yechimini qidirish bilan bog‘liq faoliyat hisoblanadi, bu jarayonda o‘qituvchi dars uchun oldindan tanlagan usul muhimdir.

Umumiy ta’limda adabiyot darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik imkoniyatlarini natijasi bo‘lib, fanni amaliyotga tadbiq etish, bunda o‘qituvchi mavjud muammolarni o‘rganish, tahlil qilish, zarur metodik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish orqali o‘quvchilarni soha mazmuniga aloqador yangi bilim olishga fan elementlarni o‘zlashtirishga safarbar qiladi.

Shu munosabat bilan bu sohada qo‘llaniladigan tadqiqotchilik faoliyatining tashkiliy shakllari va ko‘rinishlariga oid o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rib chiqish mumkin.

O‘z ilmiy qarashlarida Y.Y.Girfanova tadqiqotchilik imkoniyatlarini quyidagi tasnifini keltirgan:

- ✚ o‘quv jarayonidagi tadqiqotchilik faoliyat;
- ✚ o‘quv jarayonini to‘ldiruvchi tadqiqotchilik imkoniyatlari;
- ✚ o‘quv jarayoni bilan parallel olib boriladigan tadqiqotchilik imkoniyatlari.

Mazkur tadqiqotchilik faoliyati jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyati izlanayotgan natijaga erishish uchun yaratilgan uch turdagi shart-sharoitda rivojlanadi. Buni olim R.Garifulina juda yaqqol ko‘rsatadi:

✓ o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari va tadqiqotchilik faoliyatidagi mustaqil ish topshiriqlari tarkibida ilmiy ijodkorlik elementlarini oshirish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi.

✓ o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda yana bir asosiy omil - ularning ilmiy akademiyalar yoki birlashmalari orqali individual qiziqishlari va salohiyatlariga mos yondashuvni ta’minlashdir.

✓ eng iqtidorli talabalar aniqlanib, ta’lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida kichik akademiyalar, ilmiy izlanishlar va loyihalarda faol ishtirok etishga jalb qilinadi hamda rag‘batlantiriladi [9].

Bizning tadqiqot ishimizda o‘quvchilarning tadqiqotchilik salohiyati dars jarayoni bilan birgalikda mustaqil va sinfdan tashqari faoliyat shaklida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan, bunda ta’lim oluvchining ilmiy va kreativ faolligi, ijodkorligi tizimli ravishda rivojlantiriladi.

O‘quvchi ijodkorligi uning tadqiqotchilik xulqining eng yorqin namoyon bo‘lishi bilan amalga oshadi. Shu bois biz o‘quvchilar uchun quyidagi tadqiqiy, ijodiy izlanish aspektlarini faoliyatni rivojlanishida muhim deb hisoblaymiz:

- ✚ mavzuga oid yangi mahsulotni olish;
- ✚ ijodiy izlanish jarayoni natijalarining ahamiyatliligi.

Ijtimoiy va ta’limiy nuqtai nazar bilan qaralganda, kishi tajriba o‘tkazishga qobiliyatli va nafaqat ijodkorlik natijalaridan, balki tadqiqotchilik izlanishi jarayonining o‘zida haqiqiy qoniqish bilan tajriba o‘tkazishi muhim hisoblanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash ta’lim jarayonining muhim pedagogik yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etilishi ularning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda o‘quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning nazariy, amaliy va psixologik tayyorgarlik jihatlari o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilishi zarurligi asoslandi. Nazariy tayyorgarlik tadqiqot mazmuni va metodlari haqidagi bilimlarni shakllantirsa, amaliy tayyorgarlik ularni mustaqil izlanish va tadqiqot topshiriqlarini

bajarish jarayonida qo'llash imkonini beradi. Psixologik tayyorgarlik esa o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqish, tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantiradi.

Adabiyot darslarida muammoli ta'lim, loyiha metodi, qiyosiy tahlil, mustaqil izlanish va ijodiy topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali imkoniyat yaratadi. Badiiy asarlarni tahlil qilish, manbalar bilan ishlash, dalillarni taqqoslash va xulosa chiqarish jarayonlari o'quvchilarning ilmiy fikrlashini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali o'quvchilar axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda nazariy bilim, amaliy faoliyat, psixologik tayyorgarlik, zamonaviy pedagogik metodlar va raqamli texnologiyalarning o'zaro uyg'unligi muhim pedagogik shart hisoblanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish va kelgusidagi ilmiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. – Toshkent, 2022.
3. Nurmatova Nargiza Saidovna. Research components in school education // International journal of artificial intelligence ISSN: 2692-515-x, Impact Factor: 9.23 American Academic publishers, volume 6, issue 02,2026. Journal: <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai>
4. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
5. Usmanboeva M.X. va boshq. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. – Toshkent, 2016.
6. Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich, Nurmatova Nargiza Saidovna, G'ofurova Muxlisa G'ulom qizi // Umumiy o'rta ta'lim tizimida pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning muqobil va raqamli shakllari // “Raqamli infratuzilmani joriy etish: muammo va innovatsion yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjuman Toshkent 2026 19-20 - fevral. 677-681 betlar.

7. Qurbonova M.F. Individual ta’lim – innovatsion o‘qitish usuli // Academic Research in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 4, №3. – B. 394–399.
8. Yaxiyaxonova Muhiba. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar. – 2025.
9. Nurmatova Nargiza Saidovna. Integration in education - a factor of efficiency // “Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions”. Collection of scientific papers on materials of the international scientific-practical conference 17.12.2025, Pub. “ICP”, Washington, USA, 9-12 p.